

APELSINNI YETISHTIRISH TEXNOLOGIYASI

Anvarbekova Charos

Otaxonova Lobar

Toshboyeva Muborak

Toshkent davlat agrar universiteti

Annotatsiya: Apelsinning ahamiyati. Apelsinning tavsiya etiladigan navlari. Ekish sxemasi va muddati, yerni apelsin o'tqazishga tayyorlash va o'tqazish. Zararkunanda va ularga qarshi kurash. Iqtisodiy samarasi.

Kalit so'zlar: apelsin, ko'chat, o'g'itlar, sug'orish, meva, navlar.

Kirish

Apelsinning ahamiyati: Sersuv, xushbo'y, qimmatbaho mevalari butun dunyoga mashhur. Apelsin mevasi tarkibida 6-8 foiz shakar, 1,0-1,4 foiz turli kislotalar, 1,0 foizgacha pektin moddalar. 60-100 mg/% C vitamini, ma'lum miqdorda A, V, V2, RR vitaminlar bor. Po'sti qalin va sharbati kislotali bo'lganligidan tarkibidagi vitaminlar yaxshi saqlanadi. Apelsin juda qadimdan eng yaxshi desert mevalardan biri hisoblanadi. Apelsin mevalarining ta'm sifatlari - qand va kislotaning uyg'unligi, kuchli xushbo'y hidi uni faqatgina sitruslar orasida emas, balki boshqa barcha mevalar oldida ham birinchi o'rinlardan biriga ko'yadi. Ekish uchun tavsiya etiladigan navlari: Suxumi, Gamlin, Pervenets va h.k.

Ekish sxemasi: Apelsin to'g'ri burchakli sxemada 4x2-2,5 va shaxmat tartibida ekilganda 3x2-2,5 m sxemada ekiladi. Tuproqqa ishlov berish: Tuproqni tayyorlashga sarflanadigan mehnat va moddiy xarajatlar ko'p jihatdan issiqxona maydonining to'g'ri tanlanganligi, tuproqning mexanik tarkibi va fizik xususiyatlari, unumdorligi va PH muhiti, sizot suvlarining joylashuvi va boshqa omillarga bog'liq. Agar issiqxona avvaldan foydalanilib kelinayotgan bo'lsa, yer dastlab o'tmishdosh ekin va boshqa qoldiqlardan puxta tozalanadi. Maydonni puxta tekislab olish sitrus ko'chatlarini o'tqazishdan oldin bajariladigan muhim tadbirlardandir. Maydon tekislangach, tuproq unumdorligiga bog'liq ravishda organo-mineral o'g'itlar solinadi va 30-45 sm chuqurlikda shudgorlanadi. O'g'itlar chuqurcha tubidagi tuproq bilan yaxshilab aralashtiriladi. O'simlik ildizi mineral o'g'itlarga bevosita tegib qolmasligi (bunda ildiz kuyib qolishi mumkin) uchun aralashma ustiga yupqa qatlam toza tuproq sepilib, uning ustiga ko'chat joylashtiriladi va ildiz atrofi issiqxonaning unumdor tuprog'i bilan to'ldiriladi.

Ko'chatlarni ekish: Apelsin ko'chatlarini ekish chuqurligiga jiddiy e'tibor berish talab etiladi. Uyaning keyinchalik cho'kishini hisobga olgan holda ekilgan ko'chatlarning ildiz bo'g'zi tuproq sathidan 2-3 sm yuqorida turishi lozim. Ko'chat o'tqazish paytida har qaysi chuqurga yana 10-15 kg chirigan go'ng, 100-150 g superfosfat va 50 g dan kaliy o'g'itlari solinadi. Ekishdan so'ng sug'orish o'tkaziladi, sug'orish me'yori har bir o'simlik uchun 10 l dan kam emas. Namlikning o'simliklar tomonidan bug'lantirib yuborilishini kamaytirish va ko'chatlarning yaxshi tutib ketishini ta'minlash uchun ularning 1/3 uzunligi qirqib tashlanadi. Ko'chatlar o'tqazilgandan keyingi dastlabki yillarda o'g'itlar ko'chat atrofiga, to'rt yoshidan boshlab o'simlik tanasidan 15 sm masofada qatorining har ikki tomonidan 1 m kenglikdagi chiziqli bo'ylab beriladi. Daraxtlar 7-8 yoshga yetganda ularning umumiy rivojlanish hajmiga bog'liq ravishda o'g'itlar qator oralig'ining butun erkin kengligi bo'ylab beriladi.

Parvarishlash: O'zbekistonning janubiy viloyatlarida apelsin uch marta o'sadi. o'suv davri mart oxiri - aprelda boshlanadi va ob-havo sharoitlariga bog'liq ravishda 195-210 kungacha davom etadi. Payvandtag sifatida apelsin uchun trifoliatadan, toshloq yerlarda bigaradiyadan, yengil tuproqlarda apelsin urug' ko'chatlaridan, tuvak va oranjereyalarda apelsin va limon urug' ko'chaglaridan foydalaniladi. Payvand qilingan ko'chatlar ekilgandan so'ng 3-4 yili hosilga kiradi. Har yili hosil beradi, hosildorligi sharoit yaxshi kelgan yillarda 20—25 t/ga gacha. O'sish davrida (dastlabki 3 yil) asosiy e'tibor daraxtlarning muvaffaqiyatli o'sish asosi sifatida kuchli assimilyasion yuzani hosil qilishga qaratiladi. To'rtinchi yildan boshlab shox-shabbasini shakllantirishda ortiqcha bo'lgan (kesishgan, tana markazini soyalovchi) shoxlar kesib tashlanadi. Qoldirilgan har bir skelet shoxning o'sishi uchun erkin bo'shliq mavjud bo'lishi lozim. Boshqa adabiyotlarda esa shakl berishni to'rtinchi yilga qoldirmaslik va uni har yili o'tkazib, keraksiz shoxlarni qirqish yoki qisqartirib

turish lozimligi ta'kidlanadi. O'sish va hosil berish davrida (5-10 yil) ham qirqish va skelet shoxlardagi g'ovlab o'suvchi novdalami qirqib turish bilan cheklanadi. Mazkur tadbir har yili aprel-mayda o'tkazildi, u shox-shabbaning qalinlashib ketishi va ozuqa moddalarining ortiqcha sarflanishiga barham beradi. Hosilni yig'ib terib olish: Apelsin sifatining standartlari quyidagi qator ko'rsatkichlarga tayanadi: mevaning rangi, uning sersuvligi, sharbati tarkibida eruvchan quruq moddalar va kislotalar miqdori hamda ularning o'zaro nisbati. Mazkur talablarga javob bermaydigan mevalar sotish uchun yaroqsiz hisoblanadi. Hosilni kech yig'ib olish keyingi yilgi hosildorlikni pasaytirishi hamda meva berishdagi davriylikni kuchaytirib yuborishi ham mumkin. Mevalar maxsus meva qirquvchi qaychilarda aynan gulkosaga taqab kesiladi, chunki bandi bilan uzilgan mevalar yashik yoki boshqa idishlarga joylanganda qo'shni mevalarning po'stini teshib yuborishi mumkin. Uzilgan mevalar maxsus xalta va chelaklarga solinadi, so'ngra qadoqlash punktida ehtiyotkorlik bilan yashiklarga yoki qutilarga teriladi.

Iqtisodiy samaradorligi: Apelsin 10 sotix issiqxonaga 4x2 m sxemada ekiladigan bo'lsa, 125 dona ko'chat ketadi. 125 dona ko'chatimiz 3-5 yildan so'ng hosilga kirib, 1 dona apelsin daraxtidan o'rtacha naviga qarab 25 kg hosil olinadigan 15 000 so'mdan sotadigan bo'lsak, 46 875 000 so'm daromad keltiradi. Issiqxona qurish va issiqxonadagi haroratni bir me'yorda ushlab turish katta xarajat talab etadi. O'zbekiston Respublikasiga chet davlatlardan kirib kelayotgan apelsin mevalari tannarxi arzon shuning uchun iqtisodiy tomondan samaradorligi past hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.Rajametov, I. Normuratov, "Meva, rezavor meva va tok ko'chatzorlarini tashkil etish" "Toshkent" - 2018. 72-75 bet
2. B.X. Gulyamov, S.Y. Islamov, I.T. Normuratov "Sitrus ekinlarni yetishtirish texnologiyasi" Toshkent- 2018.
3. T.E. Ostonqulov, S.X. Narziyev, B.X. Gulomov. "Mevachilik asoslari" 2011-yil.
4. www.Mirishkor.uz
5. www.garden.uz
6. www.greenhouse.uz